

## KASABA UYUSHMALARI ORQALI AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISH HAQIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8418054>

**Yuldasheva Diyora Erkinovna**

*FarDU Ijtimoiy ish kafedrası o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqola ijtimoiy himoya nima, undan qachon foydalanish mumkin, u kimlarga beriladi kabi savollarga javob beradi. Maqola orqali biz tashkilotlarda ishchilarni ijtimoiy himoya qilish haqida ma'lumotlar olamiz. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni taminlovchi chora – tadbirlarni ham maqolada ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy himoyaning yo'nalishlari bilan tanishamiz.*

*This article answers questions such as what is social protection, when it can be used, and to whom it is provided. Through the article, we get information about social protection of workers in organizations. In the article, we will also consider the measures that ensure social protection of the population. Let's get acquainted with the directions of social protection.*

*Эта статья отвечает на такие вопросы, как что такое социальная защита, когда её можно использовать и кому она предоставляется. Благодаря статье мы получаем информацию о социальной защите работников в организациях. В статье также рассмотрим меры обеспечивающие социальную защиту населения. Ознакомимся с направлениями социальной защиты.*

### **Kalit so'zlar**

*ijtimoiy himoya, kasaba uyushmalari, moddiy muhofaza, huquqiy islohot, monopoliya, mehnat kodeksi, hodim, kafolat.*

*Social protection, trade unions, material protection, legal reform, monopoly, labor code, employee, guarantee*

*Социальная защита, профсоюзы, материальная защита, правовая реформа, монополия, трудовой кодекс, работник, гарантия*

**Kirish:**

Kasaba uyushmalari – mehnatkashlarni jinsi, diniy eʼtiqodi, irqiy va milliy mansubliklaridan qatʼiy nazar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida ijtimoiy – iqtisodiy huquqlari va oʻz aʼzolari manfaatlarini himoya qilish maqsadida birlashtiruvchi ommaviy jamoat tashkilotlari. XVIII asr oxirida Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH da oʻzaro yordam jamiyatlari sifatida kasaba uyushmalari paydo boʻlgan. Kasaba uyushmalari hodimlarning mehnat sharoiti, ish haqi, turmush, madaniyat va shu kabi sohalardagi manfaatlarini himoya qilishga va aholiga ijtimoiy jihatdan koʻmaklashishga, yordam berishga daʼvat etilgan. 14 yoshga toʻlgan va mehnat faoliyati bilan shugʻullanayotgan har bir kishi oʻz xohishiga koʻra oʻz manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmasalari tuzish, ularga kirish, kasaba uyushmalari faoliyati bilan shugʻullanish va kasaba uyushmasi tarkibidan chiqish huquqiga ega.

Mamlakatimizda huquqiy islohotlar shiddat bilan amalga oshirilayotganligini soʻnggi yillarda normative – huquqiy hujjatlarga inson va uning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar mazmun mohiyatidan ham koʻrishimiz mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasida kasaba uyushmalarining huquqiy maqomi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, “ Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari togʻrisida “ gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni 1992 – yilning 2 – iyulida qonun asosida belgilandi. Kasaba uyushmalari uning tarkibiga kiruvchi har bir mehnat faoliyati bilan shugʻullanayotgan aʼzosini ijtimoiy jihatdan oʻrganib chiqib, unga ijtimoiy yordam koʻrsatishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yoʻnalishlardan biriga, yaʼni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kirdi. Respublikamizda ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi.

Kasaba uyushmalari fuqarolik huquqiy munosabatning subyekti sifatida oʻziga xos tamoyillarga ega. Bu tamoyillarning asosiysi – kasaba uyushmalarini tashkil etish erkinligidir. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 59 – moddasida “ Kasaba uyushmalari hodimlarning ijtimoiy – iqtisodiy huquqlari va manfaatlarini himoya qiladilar va ifoda etadilar. Kasaba uyushmalari tashkilotlari tarkibiga aʼzo boʻlish ixtiyoriydir” degan soʻzlar taʼkidlanadi. Monopoliyaga qarshi kurashish qoʻmitasida ham Kasaba uyushmalari tashkil etilgan boʻlib, ish beruvchi korxonadagi kasaba uyushmasi orqali hodimlarning muammolarini aniqlab, ularni birgalikda bartaraf etishga muvaffaq boʻlib kelmoqdalar. Kasaba uyushmalarida hodimlarni baxtsiz hodisa va kasb kasalliklariga chlinishlardan muhofaza qilish

maqsadida ish beruvchi o'z hisobidan hodimlarni majburiy sug'urta qildirish, hodimlar uchun madaniy – ma'rifiy va sport muassasalarida madaniy, intellektual salohiyati va saviyasini oshirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi, turli aksiya, ko'rik – tanlov, musobaqa, forum, oilaviy va jamoaviy spektakllarda qatnashish, teatr va konsertlarga imtiyozli chiptalarni olish, ichki turizm, mehnat muhofazasi va boshqa ko'plab masalalarda barcha imkoniyatlar ishga solinishi va yo'lga qo'yilishi belgilandi hamda bu maqsad yo'lida barcha chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy himoya – keng ma'noda mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora – tadbirlar majmui; tor ma'noda davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlangani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatdan keskin tafovutlarga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosin hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlari : erkin ijtimoiy – iqtisodiy faoliyat ko'rsatishni ta'minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o'qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi, har bir fuqaroning o'z iqtisodiy faoliyatida daromatga ega bo'lishi, iste'molchilar himoyasi, istemolchilar jamiyati; tovarlar va xizmatlar sifati, iste'mol kafolatini ta'minlash; aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga nafaqa pullari, turli xil imtiyozlar berish.

Har bir mamlakatda ijtimoiy himoya mavjud. Ijtimoiy himoya mamlakatning kam taminlangan aholisiga, ishchi kuchi vazifasini bajara olmay qolgan shaxslarga, jumladan nogironligi bor shaxslar, qariyalar va bolalarga nafaqa pullari tarzida beriladi. Agar ishchi biror tashkilotda ishlasa va shu tashkilotdan keksalik yoshiga yetib istefoga chiqsa, davlat tomonidan bu shaxsga ijtimoiy himoya sifatida nafaqa puli beriladi. Yoki tashkilot ishchisi tashkilotdagi faoliyati jarayonida ko'ngilsiz voqealar sababli nogiron bo'lib qolsa, tashkilot tomonidan bu ishchi ijtimoiy himoyaga olinadi. Shuningdek davlat tomonidan bolalar ishchi kuchi bo'lib yetishguncha, ya'ni voyaga yetgungacha davlat tomonidan ijtimoiy himoya sifatida moddiy mablag' ajratiladi.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish masalasi juda muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Barcha siyosiy tashkilotlarda bu masalaga diqqat – etibor qaratilmoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish har bir mamlakatning fuqarolarga bo'lgan g'amxo'rliqi, ularni qo'llab – quvvatlashini ifoda etadi. Ijtimoiy

himoya mehnat faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan har bir shaxs uchun juda zarur. Har bir shaxs sug'urta kafolatiga ega bo'lishi kerak. Har qanday kasb bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar shaxslar o'z xavfsizligini ta'minlanishiga va o'z hayoti sug'urtasini, ijtimoiy himoyasini ta'minlanishiga e'tibor qaratishi kerak. Ijtimoiy himoyaga muhtoj har bir shaxsning bundan foydalanish imkoniyati mavjud.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bu kabi ijtimoiy himoyalar aholiga yordam ko'rsatish, aholini qo'llab - quvvatlash , ijtimoiy himoya qilish vositasida alohini rag'batlantirish va yordam berish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bunday ijtimoiy himoyalar mamlakatning bag'rikengligi bilan ham belgilanadi. Bunday bag'rikenglik ishlari deyarli har bir mamlakatda olib boriladi. Har bir davlarda ijtimoiy himoya tizilmi yo'lga qo'yilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
- 3.M.Rasulov. Ijtimoiy himoya to'g'risida. Maqola
- 4.Inson taraqqiyoti tog'risida ma'ruza.T. 2000.